

# Jahon kimyo sanoatida rekarbonizatsiya bozori 2035-yilga kelib 5 barobarga o'sishi mumkin

// 29 June 2026 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/jahon-kimyo-sanoatida-rekarbonizatsiya-bozori-2035-yilga-kel>



2025-yilda jahon kimyo sanoatida rekarbonizatsiya texnologiyalari va uskunalari bozori hajmi 9,2 mlrd AQSh dollariga yetdi.

Precedence Research agentligi prognoziga ko'ra, ushbu ko'rsatkich 2026-yilda 10,9 mlrd dollarga, 2035-yilga kelib esa 50 mlrd dollargacha oshadi. Bu davrda bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 18,6 foizni tashkil etadi.

**Bozorning o'sishi iqlim me'yorlarining tobora qat'iy qilinishi hamda barqaror, atmosferaga kam chiqindi chiqaruvchi kimyo ishlab chiqarishiga bo'lgan intilish natijasida uglerodni ushlab**

**qolish va undan foydalanish texnologiyalariga talabning ortishi bilan izohlanmoqda.** 2025-yilda mazkur bozorda Yevropa 35 foiz ulush bilan yetakchilik qildi. Prognozlarga ko'ra, tahlil davrida eng yuqori o'sish sur'ati Osiyo-Tinch okeani mintaqasida kuzatiladi va u o'rtacha yillik 21,5 foizni tashkil etadi.

**Tadqiqotga ko'ra, atmosfera havosidan karbonat angidrid (CO<sub>2</sub>)ni to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolish (DAC – Direct Air Capture) segmenti eng tez sur'atlarda rivojlanadi.**

Ushbu yo'nalishning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 24 foizni tashkil etishi kutilmoqda.